

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi:
(104-sonli maktabni joriy ta'mirlash ishlari bo'yicha) Pudrat Shartnomasi

2. Loyihaning nomi:

Yakkabog' tuman Xalq ta'limi bo'limi va "CHP JO'RAYEV ASQAR AXADOVICH" o'rtasidagi 7 000 000 (yetti million) so'mlik 104-sonli maktabni joriy ta'mirlash to'g'risida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Yakkabog' tuman Xalq ta'limi bo'limi tomonidan 2022-yil 11-avgust

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Yakkabog' tuman yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti
2022-yil «11» avgust



SH.Zoxidov.

104-sonli maktabni joriy ta`mirlash ishlari

SHARTNOMA

2022 y « 12 » o8

№ 204

Yakkabog' tumani

Keyingi o`rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan Yakkabog' tuman Xalq ta'limi bo'limi tomonidan Nizomga asosan U.Nurmatov bir tomondan va "CHP JO`RAYEV ASQAR AXADOVICH" (keyingi o`rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan Nizom asosida ish yurituvchi "Ish bajaruvchi" tarafning A. JO`RAYEV ikkinchi tomondan quyida ko`rsatilgan 104-sonli maktabni joriy ta`mirlash ishlari bo'yicha Shartnoma tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

- 1.1. 104-sonli maktabni joriy ta`mirlash ishlari bo'yicha majlis o'tkazilgan (bayonnoma tuzilgan) sanadagi 104-sonli maktabni joriy ta`mirlash ishlari bo'yicha tuzilgan majlis bayonnomasi raqami sonli yig'ilish bayonnomasiga asosan 104-sonli maktabni joriy ta`mirlash ishlarini bajarishni Bajaruvchi o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. Buyurtmachi 104-sonli maktabni joriy ta`mirlash ishlari uchun topshiriq berish, 104-sonli maktabni joriy ta`mirlash ishlari uchun zarur bo'lgan dastlabki ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
- 1.3. Bajaruvchi 104-sonli maktabni joriy ta`mirlash ishlarini amaldagi tartib-qoidalar va me'yorlarga rioya etgan holda ishlab chiqadi.
- 1.4. Bajariladigan ishlar tartibi, amalga oshirish muddatlari quyidagi tartibda:
 - bajariladigan ishlar muddatining calendar rejasi - 1-ilovaga muvofiq;
 - asoslashtirilgan kelishuv bayonnomasi 2- ilovaga muvofiq;

II. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

- 2.1. **Buyurtmachining majburiyatlari:**
- 2.2. Bajaruvchi Shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish.
- 2.4. **Bajaruvchining majburiyatlari:**
- 2.5. Bajaruvchi ishlarni texnik topshiriq va kelishilgan grafik asosida o'z vaqtida sifatli bajarishni, Buyurtmachi bilan bajarilgan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishish;
- 2.6. Obyektning qurilish-montaj jarayonida mualliflik nazoratini olib borish ishlari amalga oshirishi shart;
- 2.7. Ushbu Shartnoma bo'yicha Bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, bir haftadan oshmagan muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajarish majburiyatini oladi.

III. ISHLARNING TOPSHIRISH VA QABUL QILISHTARTIBI

3.1. Quyidagi shartlarning to'liq amalga oshirilganda taraflar imzolangan Shartnoma majburiyatlarning bajarilishi boshlangan hisoblanadi.

3.2. Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi buyurtmachiga ishlarni topshirishvaqabulqilishdalolatnomasitopshiradi.

3.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini berganholda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ruyxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

3.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish bir-birini xabardor qilishi va 15 ish kunida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtalishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

3.5. Tomonlardan biri mazkur Shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

IV. SHARTNOMA BAHOSI VA TO'LOV TARTIBI

4.1. Shartnoma bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning bahosi qo'shimcha qiymat solig'i bilan (Ekspertiza, mualliflik nazorati o'z ichiga olgan holda) –Shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarning bahosi miqdori **7 000 000 (yetti million)** so'mni tashkil etadi.

4.2. Mazkur Obyekt bo'yicha to'lov "Ochiq byudjet" mablag'lari hisobidan moliyalashtirish amalga oshiriladi.

4.3. Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda "Buyurtmachi" to'lovni amalga oshiraolmaydi.

4.4. "Buyurtmachi" Shartnoma imzolangandan so'ng Shartnoma bahosining **30 %** miqdorida bo'nak (avans) to'lovini amalga oshiradi.

4.5. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi. Quyidagi hollarda:
-ishlar qiymati ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan ya'ni (fors-major) holatlari sabab bo'lganda va ishlar Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni taraflar bajarmaganda mazkur Shartnomaning amaldagi talablari va O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

5.2. Bajaruvchi 104-sonli maktabni joriy ta'mirlash ishlari kamchiliklar uchun qurilish belgilangan tartibda javob beradi. 104-sonli maktabni joriy ta'mirlash ishlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Bajaruvchi Buyurtmachining talabi bilan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi.

5.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

5.4. Mazkur Shartnoma bo'yicha nizo kelib chiqqan hollarda, tomonlar kelishuviga erishmagan taqdirda, qonunlarda belgilangan tartibda va iqtisodiy sudga murojaat

qilishga haqlidir.

5.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirilganda shartlashilgan haqi kechiktirilgan har bir kun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida Bajaruvchiga penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.6. Bajaruvchi tomonidan smeta hujjatlarini tayyorlash o'z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo'lsa Bajaruvchi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy so'mmasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.7. Shartnoma «Bajaruvchi»ning tashabbusi bilan bekor qilinganda, Shartnoma bekor qilingunga qadar bajarilgan ishlar uchun to'langan mablag' «Bajaruvchi»ga qaytarilmaydi.

5.8. Shartnoma muddatidan oldin bekor qilish taklifini bildirgan taraf 10 kun oldin muddatda ikkinchi tarafni xabardor qilishi lozim. Bunda taraflar o'rtasida haqiqatda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha belgilangan hujjatlar asosida to'liq hisob-kitob qilingan holda amalga oshiriladi.

Penya to'lash

Bajaruvchining bajarilgan ishlari hajmidan yoki moliyaviy hisob-kitoblardan aniqlangan kamchiliklar natijasida Buyurtmachiga qaytariladigan mablag'lar va boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmasa, Buyurtmachi ushbu mablag'larni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan chegirib qolish huquqiga ega.

Mazkur Shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

VI. FORS-MAJOR VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

6.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmay kuch), epidemiya va h.k. oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar bo'lmaydi.

6.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar muzokaralar olib boorish yo'li bilan hal etiladi.

6.3. Muzokoralar olib boorish yo'li bilan ziddiyatlarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur Shartnomaning tuzilishi, uning shartlarini o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyliги yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar Yakkabog' tuman iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

VII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA UNGA QO'SHIMCHALAR

KIRITISH

7.1. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

7.2. Ushbu Shartnomamimzolangankundan boshlab kuchga kiradivashartnoma amal qilish muddati **2022 yil 31-dekabr**ga qadar hisoblanadi.

7.3. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.

7.4. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, yordamchi pudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

7.5. Ushbu Shartnoma bo'yicha to'lov MANZILIY dasturiga kiritilib, ushbu Obyekt bo'yicha hisob raqami ochilganidan keyin, hisob raqamiga mablag' ajratilgandan so'ng to'lovlar amalga oshiriladi.

7.6. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydobo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgarishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

7.7. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlanganidan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajargan ishlari uchun haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

7.8. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

7.9. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi.

7.10. Mazkur shartnoma tegishli g'aznachilik boshqarmasidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng huquqiy kuchga kiradi.



OBJEKT QURILISHINI MOLIYALASHTIRISH GRAFIGI
Yakkabog' tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 104-maktabni joriy ta'mir ishlari
 (ob'ekt nomi)


bo'nak (avans) to'lash va joriy moliyalashtirishni hisobga olgan holda

Moliyalashtirish shartlari	Qurilish yillari 2022 yil											
	Qurilish oylari											
	Y a n v a r	F e v r a l	M a r t	A p r e l	M a y	I y u n	I y u l	A v g u s t	S e n t y a b r	O k t y a b r	N o y a b r	D e k a b r
30 %hajmdagi bo'nak						30						
100 %hajmda joriy moliyalashtirish						70						
0 % foydalanishning kafolat muddati tugagach												

Kredit yoki o'z mablag'laridan foydalanish – pudratchiga havola.

Tashkilot rahbarining imzosi: _____ U.Nurmatov

Tuzilgan sanasi: "_____" _____ 2022 y.



Raqubtmachi: _____ U.Nurmatov



2022 yil "12" ABRIL dagi
104 sonli Shartnomaga 2-ilova

Shartnoma bahosini kelishuvi

BAYONNOMASI

Biz, quyida imzo qo'yuvchilar 104-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI

Obyekt nomi

smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha 2022yil "12" ABRIL dagi
104 - sonli Shartnoma bahosi qo'shimcha qiymat solig'i bilan Shartnoma bo'yicha
bajarilgan ishlarning bahosi miqdori 7 000 000 (yetti million) so'mni tashkil etadi.

Ushbu bayonnoma "Buyurtmachi" va "Pudratchi" o'rtasida o'zaro hisob-
kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

"Buyurtmachi"

Yakkabog' tuman xalq ta'limi bo'limi

Manzil: Yakkabog' tuman A.Temur

ko'chasi

Hisob-kitob raqami

100022860102507092100075121

"Toshkent MB BBXKKM"

STIR: 206940349

MFO: 00014

OKONX: 92310

telefon +998(75)5824973

G'azna x/r: 23402000300100001010

STIR: 201122989

"Bajaruvchi"

Korxonasi nomi: "CHP JO'RAYEV ASOAR

AXADOVICH"

Manzili: Yakkabog' shahri M.Ulug'bek

ko'chasi

X/r: 20208000604460923004

STIR: 205998197

OKED:

Bank: ASAKA bank Qarshi filiali

MFO: 00194

Tel:

Buyurtmachi: U.Nurmatov

M.U (imzo)

(F.I.SH.)

Bajaruvchi

A.JO'RAYEV





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestiga

"JO'RAYEV ASQAR AXADOVICH" Xususiy korxonasi

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"JO'RAYEV ASQAR AXADOVICH" XK

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

13.04.2010

107

ro'yxat raqami yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil)

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

205998197

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Xususiy korxonasi

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, Alaqarg'a, ISTIQLOL MFY
ALAQARG'A QISHLOG'I

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

to'mondan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)

